

BUXORO TARIXI O'RTA ASR TARIXCHILARI

Isroilov Amirkbek
Buxoro Davlat Universiteti,
Tarix va Yuridik fakultei 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Buxoro shahri tarixini o'rgangan shaxslar talaygina bo'lib, biz ulardan faqat aksariyatini bilamiz. Ushbu maqolada Buxoro tarixiga oid ma'lumotlarni yoritgan shaxslar hayoti va ijodi, yozgan asarlari hamda ularning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.*

Abstract: *There are many people who have studied the history of the city of Bukhara, and we know only most of them. This article provides information about the life and work of the people who covered the history of Bukhara, their works, and their importance in studying the history of the country.*

Kalit so'zlar: Narshaxiy, "Buxoro tarixi", Qubaviy, Abul Hasan Nishopuriy, Balazuriy, Tabariy, "Tarix ar-rusul val muluk", Jayhoniy, "Ashkol ul-Olam".

Key words: Narshahi, "History of Bukhara", Qubawi, Abul Hasan Nishopuri, Balazuri, Tabari, "Tarikh ar-rusul wal muluk", Jayhani, "Ashkol ul-Alam".

Buxoro vohasi madaniyati uzoq tarixiy davrlar aro hozirga qadar bo'lgan davr ichida hali hamon mavjud bo'lib, o'z boshidan ko'plab tarixiy jarayonlar, sulolalar, davlatlar, urushlar hamda madaniy-ma'rifiy taraqqiyot zamonlarining shohidi bo'lgan hudud hisoblanadi. Shunday ekan, o'lka tarixini bizgacha yetib kelgan tarixiy hujjatlar, qo'lyozma asarlar tasdiqlaydi. Ushbu qo'lyozma asarlarning ahamiyati moddiy-ashyoviy manbalardan ortiqroq bo'lib, ular nisbatan aniq ma'lumotlarni bizga yetkazadi.

Ko'pchiligidan ma'lumki, Buxoro tarixini yozgan buyuk tarixchi deganda Abu Bakr Narshaxiy ko'z oldimizda gavdalanadi. Tabiiyki, ushbu buyuk tarixchining nomi butun dunyoga mashhur va ko'pchilik ushbu shaxs va uning "Buxoro tarixi" asari haqida ma'lumotlarga egadir. Lekin afsuski, hatto tarixchilar orasida ham Buxoro tarixi uchun ahamiyatli bo'lgan o'tmish tarixchilari haqida ma'umotlardan xabardor kishilar ham mavjud. Xuddi shunday, ushbu o'lka tarixini o'z qalamiga tushirgan boshqa tarixchilar ham bor va ularning ayrimlari hatto Narshaxiy asarining to'ldirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarining asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan va u aslida arab tilida yozilgan. Uning bizgacha yetib kelgan qismi 1128-yilda Quva shahridan bo'lgan Abu Nasr Ahamad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy arab tildan fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan nusxasidir. Abu Nasr Qubaviy asarning matnini qisqartirish bilan chegaralanmay, balki, Tabariy, Abu Hasan Nishopuriyning "Hazoiq ul-ulum", Ibrohimning "Axbari Muqanna" kabi asarlaridan foydalanib, uni to'ldiradi. Ana shu tariqa, Buxoro

tarixiga Narshaxiy yashab o'tgan davrdan keyingi, 1178-1179 yillardan 1220-yillarga qadar bo'lib o'tgan tarixiy voqealar kirib qolgan⁸⁰.

Demak, ta'kidlab o'tganimizdek, Narshaxiydan tashqari uning asari ustida ishlagan shaxs va u tomonidan boyitilgan ma'lumotlarning mualliflari ham Buxoro haqida yozib qoldirishgan. Ayniqsa, ular orasidan eng ko'p foydalanilgan ma'lumotlar Abul Hasan Nishopuriyning fikrlari sanaladi. Shuningdek, Qubaviy o'zi yashagan davrlar (XI-XII asrlar) haqidagi bo'lib o'tgan voqealarni asarga tushirar ekan, uni ham o'lkani o'rgangan tarixchilar sirasiga kiritsak xató bo'lmaydi.

“Buxoro tarixi” asarini yozishda yuqorida ta'kidlaganimizdek Tabariy (839-923) ning ma'lumotlari ham muhim o'rinni tutadi. Tarixchining to'liq ismi Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy bo'lib, u 839-yilda Tabariston (Eronning shimoliy provinsiyasi) ning Amul shahrida dunyoga kelgan. Yetti yoshidan hofiz (Qur'oni to'liq yod olgan shaxs) va sakkiz Yoshida imomlik darajasiga yetgan. O'n ikki yoshida o'z ona yurtini tark etib, ilm olish maqsadida Ray, Bag'dod, Suriya, Falastin va Misrga sayohat uyushtirgan. Uning mashhur asari “Tarix ar-rusul val muluk” (“Payg'ambarlar va podshohlar tarixi”) asari mashhurdir. Asarda islom dini tarixi yoritilar ekan, albatta arablaring ushbu dinni yoyish maqsadida uyushtirgan harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlar ham bayon etilgan. Shunday ekan, ushbu asar Narshaxiy asarini to'ldirish uchun muhim manba bo'lgan. Shuningdek, tabariy islom tarixi bo'yicha dastlabki asarlardan birini yozganligi bilan shuhrat qozongan va zamondoshlari uni bekorga “musulmon tarixshunosligi otasi” deb atashmagan edi⁸¹.

Buxoro hududining bosib olinishi bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlarni keltirgan tarixchilardan yana biri bu Abul Hasan Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir ibn Dovud al-Balazuriy hisoblanadi. Tug'ilgan sanasi haqida aniq ma'lumot mavjud emas, lekin vafot etgan sanasi 892-yil deb belgilanadi. Yozgan asarining nomlanishi “Kitob al-futuh al-buldon” (“mamlakatlar bosib olinishi tarixi”) kitobi hisoblanadi. Asarda arablar tomonidan bosib olingen o'lklar tarixi va ularning fathi haqida so'z yuritiladi⁸².

O'rta asr tarixchilari orasida faqat arablar davri bosqinini o'zasarlarida tasvirlagan allomalardan tashqari, Buxorodagi buyuk davlatchilikm asoslari haqida ma'lumot bergen, Somoniylarga tegishli hududlar va ular haqida o'tmishtagi va o'zi yashagan davrdagi ma'lumotlarni keltirgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Jayhoniying “Ashkol ul-Olam” asari qimmatlidir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek Somoniylar davri davlatchiligi haqida so'z yuritiladi. Ayniqsa sulola vakillari haqida so'zlovchi asarning “Somoniylar amirlari” bobida har bir hukmdorga xarakteristika berilib, ularning yurgizgan siyosatlari to'g'risida yozib qoldirgan. Shuningdek, asarning siyosatga bog'liq jumlalar “Somoniy vazirlari uning vafotidan keyin” va “Somoniylar zamonining xabari” boblarida yoritilgan. Asarda ushbu boblardan keyin keluvchi boshqa bob – “Movorounnahrga tobe hududlar bayoni”da ulug' saltanatga tegishli bo'lgan shaharlar va o'lklar to'g'risida ma'lumotlar

⁸⁰ To'rayev. H. Buxoro tarixi. –Buxoro.: “Durdona”, 2020. -В. 96., Наршахий. Бухоро тарихи. -Т.: “Фан”, 1966. - Б. 6.

⁸¹ <https://en.wikipedia.org/wiki/Al-Tabari>

⁸² <https://en.wikipedia.org/wiki/Al-Baladhuri>

berilgan. Bunda nafaqat shunchaki shaharlar tavsifi, balki IX-X asrlardagi qadimiy shaharlar, darvozalar, rabotlar, ariqlar va bu shaharlar o'rtasidagi masofalar, tabiat, iqlimi, o'sha vaqtdagi odamlarning hayat tarzi va boshqa qiziqarli tarixiy ma'lumotlar keltirib o'tilgan⁸³.

Bulardan tashqari Buxoro tarixi haqida asarlar yozib qoldirgan tarixchilarning soni ko'pdir. Biz keltirib o'tgan ushbu allomalar Buxoro tarixinining O'rta asrlargaa tegishli davrini ifodalagan tarixchilar hisoblanishadi. Qadim o'lkaning hali-hamon to'la o'rganilmagan sohalari mavjud bo'lib, ularni o;rganib tadqiq qilish zamondosh tarixchilarimiz vazifalaridan sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To'rayev. H. Buxoro tarixi. –Buxoro.: “Durdona”, 2020.
2. Наршахий. Бухоро тарихи. -Т.: “Фан”, 1966.
3. Абу Абдулло Мұхаммад бинни Аҳмад ал-Жайҳоний. Ашкол-ул-олам. Сомоний амирлари. -Бухоро.: 2022.
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Al-Baladhuri>
5. <https://en.wikipedia.org/wiki/Al-Tabari>
6. Маткаримова, Н. М. (2020). Хоразмнинг анъанавий таомлари (монография-альбом). Школа Науки, (8-2), 1-33.
7. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., & Xolmatova, M. A. (2022). ASALARICHILIK VA UNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 644-649.

⁸³ Абу Абдулло Мұхаммад бинни Аҳмад ал-Жайҳоний. Ашкол-ул-олам. Сомоний амирлари. -Бухоро.: 2022. -Б. 3.